



ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№2(31) 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 - tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

- 4 **Rajabov To'xtasin Ibodovich**, pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Ahmadov Olim Shodmonovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Qilichov Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori (DSc)
Elov Ziyodullo Sattorovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Jumaniyozova Muhayyo Husenovna, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Adizova Nigora Baxtiyorovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Hayitov Jahongir Shodmonovich, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Jumaniyozova Muhabbat Husenovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Farmonova Shabon Muhamadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) , dotsent
Jumayev Yo'ldosh G'afurovich, yuridik fanlari nomzodi, dotsent
Qodirov Rashid Hamidovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosatshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Jo'rayev Akmal Razzoqovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Nazarov Mustaqim Rashidovich, texnika fanlari nozodi, dotsent
Ergashev Jahongir Yunus o'g'li, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Po'lotova Yulduz Asadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ashurova Marhabo Sayfulloyevna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Omonova Dildora Nekmurodovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Raupov Sohob Saidovich, tarix fanlari nomzodi, professor
Rizayev Baxtiyor Nazarboyevich, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sirojov Ochil Sirojovich, tarix fanlari nomzodi, professor
Jalilova Saboxat Xalilovna, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Sidiqova Dilora Shavkatovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Abdullayeva Feruza Nurillovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Saidqulova Firuza Farmonovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Temirov Farrux Umedovich, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Babayeva Shoira Boymurodovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Yuldasheva Mashhura Muzaffarovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ro'ziyev To'liq Razzoqovich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Abdullayeva Dilfuza Abdujalilovna, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Utayeva Feruza Xolmamatovna, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ummatova Sitara Shavkatullayevna, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharofov Sherzod Shirinboy o'g'li, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Saidov Izzatillo Istamovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismatova Nigina Baxodirovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Murtazoyev Azizbek Nusrat o'g'li, texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Рассмотрение славяноведения как интегративного направления показывает, что современная славистика функционирует на стыке филологии, истории, этнографии и культурологии, а её методологическая ценность определяется возможностью сопоставлять языковые и культурные процессы в пределах родственной общности. Проблема славянского этногенеза, в частности этимологии этнонима «славяне/словене», демонстрирует устойчивую дискуссионность: конкурируют лексико-семантические, топонимические и культурно-исторические модели, ни одна из которых не закрывает вопрос окончательно. Современный славянский мир при этом выступает не как единый блок, а как политически и культурно дифференцированная система западного, восточного и южного ареалов, где исторические траектории государственности и конфессионально-культурные различия определяют специфику каждой национальной общности.

Использованные литературы

1. Большая энциклопедия Кирилла и Мефодия. Статья «Славяноведение (славистика)». — Электронный ресурс / справочное издание.
2. Лингвистический энциклопедический словарь. — М.: Советская энциклопедия, 1990. — Статья «Славянская филология; Славяноведение».
3. Гладкий В. Д. Славянский мир: Энциклопедический словарь. — М.: Вече, 2001. 768 с.
4. Синописис Киевский. Киев: Типография Киево-Печерской лавры, 1674.
(Цит. по современным изданиям: *Мечта о русском единстве. Киевский синописис (1674)*. — М., 2006).
5. Бодуэн де Куртенэ И. А. Избранные труды по общему языкознанию. — М.: Изд-во АН СССР, 1963.
6. Толстой Н. И. Славянская этнолингвистика: вопросы теории. — М.: Наука, 1995.
7. Трубачёв О. Н. Этногенез и культура древнейших славян. — М.: Наука, 1991.
8. Седов В. В. Славяне в раннем Средневековье. — М.: Академический проект, 2002.
9. Миронова Т. Л. Славянская идея и историческая судьба России. — М.: Алгоритм, 2006.
10. Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры. — М.: Академический проект, 2004.
11. Бернштейн С. Б. Очерки сравнительной грамматики славянских языков. — М.: Наука, 1974.
12. Comrie B. *The Slavic Languages*. — London: Routledge, 1993.
13. International Committee of Slavists. *Proceedings of the International Congress of Slavists*. — Various years (1929–2018).

SOVETDAN KEYINGI ADABIY MAKON: 1990-YILLAR TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada 1990–1999-yillarda O‘zbekistonda, xususan, Buxoro viloyatida adabiy muhitning shakllanishi va transformatsiyasi tarixiy jihatdan tahlil qilinadi. O‘tish davriga xos siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar sharoitida adabiy muhitning institutsional tuzilishi, ijtimoiy funksiyalari hamda hududiy xususiyatlaridagi o‘zgarishlar ochib beriladi. Maqola rasmiy hujjatlar, davriy matbuot, og‘zaki tarix materiallari va ilmiy adabiyotlar asosida olib borilgan.

Kalit so‘zlar: adabiy muhit, o‘tish davri, 1990-yillar, Buxoro viloyati, institutsional inqiroz, ijod erkinligi.

ПОСТСОВЕТСКОЕ ЛИТЕРАТУРНОЕ ПРОСТРАНСТВО: АНАЛИЗ 1990-Х ГОДОВ

Аннотация. В статье проводится исторический анализ формирования и трансформации литературной среды в Узбекистане, в частности в Бухарской области, в 1990–1999 годах. В условиях переходного периода, характеризующегося политическими, социально-экономическими и культурными изменениями, раскрываются трансформации институциональной структуры литературной среды, её социальных функций и региональных особенностей. Исследование основано на анализе официальных документов, материалов периодической печати, устно-исторических источников и научной литературы.

Ключевые слова: литературная среда, переходный период, 1990-е годы, Бухарская область, институциональный кризис, творческая свобода.

POST-SOVIET LITERARY SPACE: ANALYSIS OF THE 1990S

Annotation. The article provides a historical analysis of the formation and transformation of the literary environment in Uzbekistan, particularly in the Bukhara region, during 1990–1999. Within the context of the transition period marked by political, socio-economic, and cultural changes, the study reveals transformations in the institutional structure of the literary environment, its social functions, and regional characteristics. The research is based on official documents, periodical publications, oral history materials, and scholarly literature.

Keywords: literary environment, transition period, 1990s, Bukhara region, institutional crisis, creative freedom.

Introduction (Kirish). 1990-yillar O‘zbekiston tarixida tub siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan tavsiflanadigan o‘tish davri sifatida alohida o‘rin egallaydi. Ushbu davrda sobiq sovet tuzumining markazlashgan boshqaruv tizimi barham topib, yangi davlat va jamiyat qurish jarayoni boshlandi. Mazkur jarayon jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan, madaniy va ma’naviy makonga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Adabiy muhit esa ana shu o‘zgarishlarning eng sezgir va tezkor aks etuvchi sohalaridan biri bo‘ldi.

Sovet davrida adabiy muhit qat’iy ideologik nazorat ostida faoliyat yuritgan bo‘lib, uning tashkiliy asoslari markazlashgan davlat institutlari orqali boshqarilgan edi. Yozuvchilar uyushmalari, nashriyotlar, matbuot organlari va adabiy mukofotlar yagona mafkuraviy tizim doirasida ishlagan [1]. Bu holat adabiy muhitning tashkiliy barqarorligini ta’minlagan bo‘lsa-da, uning ijodiy va ijtimoiy mustaqilligini cheklab qo‘ygan. 1990-yillarning boshlariga kelib, mazkur tizimning yemirilishi adabiy muhitni yangi tarixiy sharoitga moslashishga majbur qildi.

Methods (Tadqiqot metodlari va manbalari). Tadqiqot tarix fanida qo'llaniladigan asosiy metodologik tamoyillar – tarixiylik, tizimlilik va sabab-oqibat tahlili asosida olib borildi. Adabiy muhit muayyan davr va sharoit bilan uzviy bog'liq holda tarixiy hodisa sifatida o'rganildi.

manbaviy baza bir necha asosiy guruhlardan shakllantirildi:

rasmiy-huquqiy va tashkiliy hujjatlar (yozuvchilar uyushmasi va uning buxoro bo'limi faoliyatiga oid materiallar);

1990-yillarda chop etilgan davriy matbuot materiallari;

adabiy jarayonda ishtirok etgan ijodkorlar va mutasaddilarning xotira hamda og'zaki tarix materiallari;

mustaqillik davri tarixiga oid ilmiy adabiyotlar.

maxsus metodlardan institutsional tahlil va qiyosiy tarixiy metod qo'llanilib, Buxoro adabiy muhiti respublikaning boshqa hududlari bilan qiyosda tahlil qilindi.

1990–1999-yillarda Buxoro adabiy muhitini tarixiy jihatdan tadqiq etish o'ziga xos manbaviy va metodologik yondashuvni talab qiladi. Mazkur davr O'zbekiston tarixida keskin siyosiy, ijtimoiy va madaniy transformatsiyalar davri bo'lib, adabiy muhit ushbu jarayonlarning bevosita va bilvosita ta'siri ostida shakllangan. Shu sababli adabiy muhitni o'rganishda bir turdagi manbalar bilan cheklanib qolish ilmiy natijalarning biryoqlama bo'lishiga olib keladi. Tadqiqotda manbalar bazasini keng qamrovli va tizimli shakllantirish, shuningdek, ularni tanqidiy tahlil qilish asosiy metodologik vazifa sifatida belgilandi.

Results (Natijalar). O'tish davrining dastlabki bosqichida adabiy muhit institutsional jihatdan jiddiy inqirozni boshdan kechirdi. Avval mavjud bo'lgan markazlashgan moliyalashtirish tizimi, nashr rejasi va ijodkorlarni moddiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari izdan chiqdi. Natijada adabiy muhitning barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan tashkiliy va moddiy asoslar zaiflashdi. Bu holat nafaqat respublika miqyosida, balki viloyatlar darajasida ham yaqqol namoyon bo'ldi.

Shu bilan birga, 1990-yillar adabiy muhit tarixida yangi imkoniyatlar davri ham bo'ldi. Ideologik senzuraning bekor qilinishi ijod erkinligining kengayishiga olib keldi. Avval taqiqlangan yoki cheklangan mavzular – tarixiy xotira, milliy o'zlik, repressiyalar, mustamlakachilik oqibatlari – adabiy muhitda faol muhokama qilina boshladi. Bu jarayon adabiy muhitning mazmuniy jihatdan boyishiga xizmat qilgan bo'lsa-da, uning tashkiliy barqarorligini avtomatik ravishda ta'minlab bera olmadi.

O'tish davriga xos yana bir muhim xususiyat adabiy muhitning ijtimoiy funksiyalarida yuz bergan o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Sovet davrida adabiyot va adabiy muhit jamiyatda "mafkuraviy yetakchi" vazifasini bajargan bo'lsa, 1990-yillarda bu rol sezilarli darajada o'zgardi [2]. Jamiyatda iqtisodiy muammolar, ijtimoiy beqarorlik va kundalik tirikchilik masalalari ustuvor ahamiyat kasb etgan bir sharoitda adabiy muhitning ijtimoiy ta'sir doirasi qisqardi. Natijada adabiy muhit jamiyatning keng qatlamlariga emas, ko'proq ma'lum bir ziyolilar doirasiga yo'naltirilgan madaniy makonga aylandi.

1990-yillar adabiy muhitining tarixiy xususiyatlaridan yana biri – uning hududiy jihatdan tabaqalanishidir. Sovet davrida markazlashgan boshqaruv tizimi tufayli viloyat adabiy muhitlari asosan poytaxtdagi adabiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. O'tish davrida esa bu aloqalar zaiflashib, viloyat adabiy muhitlari nisbatan mustaqil faoliyat yuritishga majbur bo'ldi. Bu holat viloyatlarda adabiy muhitning o'ziga xos xususiyatlarini yanada yaqqolroq namoyon qildi.

Mazkur jarayon Buxoro viloyati misolida ham kuzatiladi. Buxoro adabiy muhiti tarixan ko'p tilli va ko'p madaniyatli makon sifatida shakllangan bo'lib [4], 1990-yillarda bu xususiyat yangi tarixiy sharoitda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ldi. Markaz bilan aloqalarning qisqarishi, mahalliy tashabbuslarning ahamiyati ortishi va mavjud institutlarning qayta tashkil etilishi Buxoro adabiy muhitining ichki dinamikasini belgilab berdi.

Shuningdek, o'tish davrida adabiy muhitning ichki tarkibida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. Avlodlararo uzilish kuchayib, sovet davrida shakllangan ijodkorlar bilan mustaqillik yillarida maydonga chiqqan yangi avlod o'rtasida estetik va ijtimoiy qarashlar farqi paydo bo'ldi

[5]. Bu holat adabiy muhitning yaxlitligiga ta'sir ko'rsatib, uning parokandalashuviga olib keldi. Shu bilan birga, mazkur jarayon adabiy muhit tarixini o'rganishda avlodlararo munosabatlar masalasini alohida tahlil qilish zaruratini yuzaga chiqardi.

Umuman olganda, 1990-yillar o'tish davrida adabiy muhitning tarixiy xususiyatlari uning tashkiliy inqirozi, mazmuniy erkinlashuvi va ijtimoiy funksiyalarining o'zgarishi bilan tavsiflanadi. Ushbu xususiyatlar adabiy muhitni nafaqat madaniy hodisa, balki jamiyatdagi kengroq ijtimoiy-madaniy jarayonlarning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi. Shu bois 1990-yillar adabiy muhitini tarixiy tadqiq etish O'zbekistonning o'tish davri tarixini kompleks tarzda anglash uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada foydalanilgan manbalarni bir necha asosiy guruhlariga ajratikgani yuqorida aytili. Birinchi va eng muhim manba guruhi rasmiy-huquqiy va tashkiliy hujjatlardan iboratdir. Bular O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, uning viloyat bo'limlari, xususan, Buxoro bo'limi faoliyatiga oid buyruqlar, qarorlar, yig'ilish bayonnomalari, shtat jadvali, moliyaviy hisobotlar va turli xatlar majmuasini o'z ichiga oladi. Ushbu hujjatlar adabiy muhitning institutsional tuzilishini, boshqaruv mexanizmlarini hamda o'tish davrida yuz bergan tashkiliy o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Aynan rasmiy hujjatlar asosida adabiy muhitning davlat va jamiyat bilan munosabatlari tarixiy aniqlik bilan tiklanadi.

Rasmiy hujjatlarning ilmiy ahamiyati shundaki, ular subyektiv baholardan xoli bo'lib, adabiy muhit faoliyatining real tashkiliy holatini aks ettiradi. Shu bilan birga, ushbu manbalar bilan ishlashda ularning yaratilish sharoiti va maqsadini hisobga olish zarur. Chunki o'tish davrida tuzilgan hujjatlarda ba'zan muammolar yumshatilgan holda yoki rasmiy til doirasida ifodalangan bo'lishi mumkin. Shu sababli rasmiy hujjatlar boshqa manba turlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, tarixiy haqiqatni tiklashga xizmat qildirildi.

Ikkinchi muhim manba guruhi davriy matbuot materiallaridan iboratdir. 1990-yillarda respublika va viloyat miqyosida chop etilgan gazeta va jurnallarda adabiy hayotga oid ko'plab materiallar e'lon qilingan. Ushbu materiallar adabiy muhitning kundalik faoliyati, ijodiy jarayonlar, adabiy tadbirlar, muhokamalar va jamoatchilik fikrini o'rganish imkonini beradi. Davriy matbuot adabiy muhitni nafaqat tashkiliy institut sifatida, balki ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilish uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

Davriy matbuot materiallarining tarixiy ahamiyati shundaki, ular o'sha davrning ruhiy holati, ijtimoiy kayfiyati va jamoatchilik munosabatini aks ettiradi. Biroq bu manba turidan foydalanishda tanqidiy yondashuv muhimdir. Chunki o'tish davrida matbuot ham siyosiy va iqtisodiy omillar ta'sirida bo'lgan. Shu bois matbuotdagi ma'lumotlar rasmiy hujjatlar va boshqa manbalar bilan solishtirilgan holda tahlil qilindi.

Uchinchi manba guruhi xotira va og'zaki tarix materiallarini o'z ichiga oladi. Adabiy muhitda faol ishtirok etgan ijodkorlar, adabiy tashkilotlar xodimlari, jurnalistlar va madaniyat sohasi vakillarining esdaliklari mazkur tadqiqot uchun muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Og'zaki tarix materiallari rasmiy hujjatlarda aks etmagan jarayonlarni, adabiy muhitning ichki muhitini va norasmiy aloqalarini yoritishga imkon beradi. Ayniqsa, o'tish davriga xos bo'lgan beqarorlik va noaniqlik sharoitida bu kabi manbalar adabiy muhitning real holatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq og'zaki tarix manbalaridan foydalanishda subyektivlik omili mavjudligi sababli, ular tanqidiy tahlil asosida qo'llanildi. Har bir xotira yoki suhbat materiallari boshqa manbalar bilan qiyoslanib, ularning ishonchlilik darajasi aniqlashtirildi. Bu yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

To'rtinchi manba guruhi ilmiy adabiyotlardan iborat bo'lib, ular ikki asosiy yo'nalishga bo'linadi. Birinchisi, O'zbekistonning mustaqillik davri tarixi va o'tish jarayonlariga bag'ishlangan tarixiy tadqiqotlardir. Ushbu asarlar adabiy muhitni kengroq siyosiy va ijtimoiy kontekstda ko'rib chiqish imkonini beradi. Ikkinchisi esa adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar bo'lib, ular yordamchi manba sifatida adabiy muhitning mazmuniy va estetik jihatlarini tushunishga xizmat qiladi. Biroq mazkur maqolada adabiyotshunoslik manbalari tarixiy tahlilga bo'ysundirilgan holda, cheklangan darajada qo'llanildi.

Metodologik jihatdan tadqiqot tarix fanida qo‘llaniladigan asosiy tamoyillar asosida olib borildi. Tarixiylik tamoyili adabiy muhitni muayyan davr va sharoit bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilishni ta‘minladi. Tizimlilik yondashuvi esa adabiy muhitni alohida unsurlar majmui emas, balki o‘zaro bog‘liq institutlar va jarayonlar tizimi sifatida ko‘rib chiqishga imkon berdi. Sabab—oqibat tahlili yordamida esa 1990-yillarda adabiy muhitda yuz bergan o‘zgarishlarning omillari va natijalari aniqlashtirildi.

Discussion (Muhokama). Olingan natijalar adabiy muhitni nafaqat estetik, balki ijtimoiy-institutsional hodisa sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi. Sovet davrida adabiyot jamiyatda mafkuraviy yetakchi rol o‘ynagan bo‘lsa, 1990-yillarda bu rol sezilarli darajada qisqardi. Iqtisodiy muammolar va ijtimoiy beqarorlik sharoitida adabiy muhit ko‘proq tor ziyolilar doirasiga yo‘naltirilgan madaniy makonga aylandi.

Buxoro adabiy muhitida avlodlararo uzilish va estetik qarashlar farqi kuchaydi. Bu holat adabiy muhitning yaxlitligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, yangi ijodiy izlanishlar uchun zamin ham yaratdi.

Maxsus metodlardan biri sifatida institutsional tahlil qo‘llanildi. Ushbu metod yordamida adabiy muhitni tashkil etuvchi institutlar — adabiy uyushmalar, nashr tizimi va madaniy tashkilotlarning faoliyati tarixiy nuqtai nazardan o‘rganildi. Institutsional yondashuv adabiy muhitning tashkiliy barqarorligi va o‘zgaruvchanligini tahlil qilishda muhim ilmiy vosita bo‘ldi. Shuningdek, qiyosiy tarixiy metod yordamida Buxoro adabiy muhitining o‘ziga xos xususiyatlari respublikaning boshqa hududlaridagi adabiy muhitlar bilan qiyosda ochib berildi.

Bu davrda progmatik yondashuv unsurlaridan ham ehtiyotkorlik bilan foydalanildi. Biroq tarixiy metodologiyaga to‘liq bo‘ysundirilgan holda ishlatildi. Bu holat maqolaning O‘zbekiston tarixi doirasidan chiqib ketmasligini ta‘minladi.

Xulosa. 1990–1999-yillarda adabiy muhitning tarixiy xususiyatlari uning tashkiliy inqirozi, mazmuniy erkinlashuvi va ijtimoiy funksiyalarining o‘zgarishi bilan tavsiflanadi. Buxoro viloyati misolida olib borilgan tahlil adabiy muhitning hududiy jihatdan tabaqalanishini va o‘tish davriga moslashuv mexanizmlarini ochib berdi. Ushbu tadqiqot natijalari o‘tish davri madaniy jarayonlarini kompleks anglash uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega. Umuman olganda, Buxoro adabiy muhitini 1990-1999-yillarda tarixiy tadqiq etish uchun shakllantirilgan manbaviy baza va metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy puxtaligini ta‘minlaydi. Ushbu yondashuv keyingi maqolalarda adabiy muhitning institutsional tuzilishi, ijtimoiy funksiyalari va hududiy xususiyatlarini chuqur va asosli tahlil qilish uchun mustahkam ilmiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akhmatov A. Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Бухоро бўлими тарихи. Research on social and Humanitarian sciences Volume: 01. Issue:01/Jan-2023 Impact factor: 7.2 (2022) ISSN-L: 3595-3566 www.scirp.org
2. Ахматов А. Бухоро адабий муҳити тарихи (XX аср). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро., 2022. – Б.32.
3. Бухоро мавжлари, 2011 йил 2 сон.
4. Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. –Бухоро: Дурдона, 2015. –584 б.;
5. Тошпўлат Аҳмад:Излаганим сенсан,она-Бухоро!" // Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: Шодмон Сулаймон. –Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 2007. –Б.73.
6. Ўзбекистон миллий архиви, М-123 фонд, 1-рўйхат, 1б -йиғма жилд